



Buxoro Davlat Universiteti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim va
sport tarbiyavi ishi yo'nalishining 1" M" talabasi
Eshqobilov Asqarning

O'zbek tili fanidan yozgan

MUSTAQIL ISHI

Mavzu: SIFAT.SIFATNING MA'NOSI VA
GRAMMATIK BELGILARI

Tekshirildi:

Istamova.Sh

Bajarildi:

Eshqobilov.A

Buxoro – 2012

SIFAT

SIFATNING MA'NOSI VA GRAMMATIK BELGILARI

126-§. Predmetning belgisini bildiruvchi mustaqil so'zlar sifat deyiladi: yaxish (kitob), kamtarin (yigit), chiroyli (shahar), keng (yo'l), katta (bino), shirin (olma), qadimgi (tarix), devoriy (gazeta) *kabi.*

Sifatlar narsaning belgi xususiyatini turli nuqtai nazardan anglatishi mumkin. Bu belgilar bevosita insonga yoki borliqdagi jonli va jonsiz narsalarga tegishli bo'lishi mumkin.

Sifatlar shu xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

a) narsaning rangini, tusini bildiruvchi sifatlar: qizil, ko'k, oq, yashil, sariq, pulti, qora, sapsar *kabi.* U guzardagi katta oq tosh supada tikka turibdi. (A. Mux.);

b) narsaning xususiyatini bildiruvchi sifatlar: kamtar, sho'x, tetik, chaqon, abjir, yaxshi, xasis, qo'rs, injiq, dadil, mehribon, mohir *kabi.* Fe'li keng, sahovatli, mehmondo'st xalqimizning dong'i olamga ketgan. (Mirm.) Muhayyo bu sodda, chaqon, beg'ubor bolaga havaslanib qaradi. (A. Q.);

v) narsaning shakl ko'rinishini, hajmo'lchovini bildiruvchi sifatlar: novcha, kalta, oriq, egri, qiyshiq, yassi, katta, kichik, keng, tor, og'ir, uzun *kabi.* Ular Farg'onaning katta ko'chalaridan birida uch xonali kvartirada turishadi. (Mirm.) Ulkan shaharning eng go'zal, eng serdaraxt joylaridan biri shu (P. Qod.):

g) narsaning holatini bildiruvchi sifatlar: shod, xursand, go'zal, xafa, ma'yus, issiq, tinch, quruq, yosh, eski *kabi*: Ikkovi nariroqdagi yorug' chiroq shu'lasida uzoq gaplashdi. (A. Q.) Abdullani yangi hayot, yangi orzular quvonchi qamrab olgan edi (U. U.);

d) narsaning ta'mini, mazasini bildiruvchi sifatlar: shirin, nordon, achchiq, sho'r, bemazy, lazzatli *kabi*. Xushxo'r palovdan so'ng katta shirin tarvuz so'yildi. (O.) Zira bilan archaning qidiga to'yingan xushbo'y, lazzatli kabob qorni to'q, kishining ham ishtaqa.idan karnay yasar edi (P. Qod.);

e) narsaning vaqt va o'rin belgisini bildiruvchi sifatlar: qadimgi, bugungi, kechki, tonggi, yozgi, kuzgi, devoriy, hozirgi, avvalgi, qishki *kabi*: Endigi ishlarimizning rejasini kattaroq, puxtaroq tuzishimiz zarur. (O.) Bugungi ishni ertaga qo'yma (Maqol.);

j) narsaning hidini bildiruvchi sifatlar: *xushbo'y, sassiq, qo'lansa kabi*.

Sifatlar asosan otga bog'lanib, narsaga xos belgini bildiradi. Ular ba'zangina fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildiradi: *Bir narsani qadrlash uchun u ni avval yaxshi bilish kerak.* (A. Q.)

127- §. Sifatlar belgini o'zicha, ayrim olingan holda bildirmaydi, balki borliqdagi u yoki bu narsa va hodisalarga tegishli holda anglatadi. SHuning uchun sifat, odatda, narsa va hodisalarning nomi bo'lmish otlarni aniqlab keladi: *kuzgi shamol, aqlli bola, qizil qalam, malla soch, tor kucha, qiziqarli tomosha kabi*.

Uzbek tilida sifat boshqa so'z turkumlaridan o'ziga xos ma'nosi, maxsus sifat yasovchi affikslarga va shakl yasovchi affikslarga ega ekanligi bilan farqlanib turadi. Grammatik jihatdan narsa belgisini

boshqa narsa belgisi bilan qiyoslab, darajalab ko'rsatish yoki predmet belgisini kuchaytirib va kamaytirib ko'rsatish xususiyatiga ega: *katta — kattaroq, eng katta, ko'k — ko'kroq, eng ko'k, ko'm-ko'k, ko'kimtir, yangi — yangiroq, eng yangi — yap-yangi, qora — qoraroq, eng qora, qop-qora — qoramtir* kabi.

Sifat odatda otga bog'lanib keladi, uning biror belgisini aniqlashga xizmat qiladi. Ba'zan ot so'z ham hech qanday morfologik belgisiz sifatlovchi bo'lib keladi. «Pekin belgi ma'nosini anglatib kelgan bynday ot tamoman sifat turkumiga o'tib ketmaydi, (balki ot turkumi doirasida qoladi: *tosh yo'l, taxta ko'prik, oltin soat, atlas ko'ylak, kumush qoshiq* kabi.

128- §. *Sifatlar gapda ko'pincha sifatlovchi vazifasida keladi:* Ochil buva o'tkir, qora ko'zli, serqosh, miroyli yigit bo'lgan. (A. Mux.) *Bundan tashqari, kesim va hol vazifasida ham keladi:* Xo'jalik madaniyatning, madaniyat xo'jalikning yana chiroyliroq, kuchliroq gullashiga sababchi bo'ladi.' (O.) Samarkand tonglari shavqli, farahli. (3. Obidov).

Oppoq qordir tog'larning boshi, Daryo tiniq, osmon beg'ubor. (H. O.)

Sifatlar otlashib kelganda, gapda ega, to'ldiruvchi va qaratuvchi vazifalarida keladi:

Kattalarning g'ururi, yoshlarning shod qiyg'osi,
Tashakkur aytmog'dadir qalbidan bu nahora. (G'. G'.)

129- §. Sifatlar anglatgan ma'nolarga ko'ra bir xil emas. Ba'zi sifatlar bevosita, to'g'ridan-to'g'ri narsa belgisini ko'rsatsa, ba'zilari

esa belgi ma'nosini bir narsaning boshqa predmetga bo'lgan munosabatiga ko'ra anglatadi.

Belgini bevosita anglatadigan sifatlarga aslii sifat deyiladi: oq, qizil, sariq, pushti, yaxshi, keng, yomon, katta, baland, past, semiz, qotma, sho'x, yosh, novcha, shirin, chuchuk, achchiq, sho'r, og'ir, engil, nordon kabi.

Belgini bir narsaning boshqa narsaga bo'lgan munosabatiga ko'ra anglatadigan sifatlarga nisbiy sifat deyiladi. Nisbiy sifat maxsus so'z yasovchi affiks vositasida boshqa so'z turkumlaridan yasaladi: *bilimli kishi, yillik plan, tonggi shabada, ertalabki mashg'ulot, suvsiz er* kabi.

Nisbiy sifatda yasash asosidan anglashilgan narsaga xoslanganlik, chog'ishtirish, o'xshatish, o'rin yoki paytga nisbatlash kabi ma'nolar ifodalanadi, sifat yasovchi affiks go'yo ikki narsa orasidagi munosabatlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi: *keyingi dare, mevali daraxt, oylik plan, oilaviy munosabat, qadimgi tarix, harbiy unvon* kabi.

Nisbiy sifatlar ma'no jihatdan belgyni:

1) *narsaga nisbat berish bilan ifodalaydi: g'ayratli kishi, bolali ayol, aqlli yigit, ilmiy ish, shax-siy masala, devoriy gazeta* kabi;

2) *vaqtga nisbat berish bilan ifodalaydi: kuzgi shamol, hozirgi zamon* kabi;

3) *o'ringa nisbat berish bilan ifodalaydi: toigkentlik yigit, shaharlik talaba* kabi.

Asliy va nisbiy sifatlar belgi anglatish xususiyati jihatidangina emas, balki bir qancha morfologik belgilari bilan ham birbiridan farq qiladi. Asliy sifatlarga belgining ortiq yoki kamligini ifodalovchi

shakl yasalishi, daraja kategoriyasi mansub, nisbiy sifatlarning ko'pchiligi esa bunday xususiyatga ega emas.

DARAJA KATEGORIYASI

130- §. Sifatlarga xos muhim xususiyatlardan biri uning daraja kategoriyasiga ega ekanligidir. Sifat darajalari belgining ortiq yoki kamligini farqlashga xizmat qiladi. Sifatlarda daraja shakllari ikki turga bo'linadi: 1) ozaytirma daraja; 2) orttirma daraja.

Sifatning ozaytirma va orttirma daraja yasovchilarini olmagan formasi *oddiy daraja* deb yuritiladi. Oddiy darajada narsa belgisi ortiqkamligi jihatidan qiyos qilinmay, balki to'g'ridan-to'g'ri, bevosita anglashiladi. Ozaytirma va orttirma darajalarida esa belgi ma'nosi oddiy darajada ifodalangan belgiga chog'ishtirish asosida ifodalanadi.

131- §. *Ozaytirma daraja. Ozaytirma daraja narsa belgisining oddiy daraja holatidan kamligini, kuchsizligini bildiradi. Ozaytirma darajaning morfologik ko'rsatkichi -roq affiksidir: Meni paxtasi qalinroq joyga quy, iigim unsin, yana kolxozchilar oldida qizarmay... (O.) Dilimda orzu balandroq edi, lekin ko'klam noqulay keldi. Ba'zi joylarga qayta- qayta ekdik, o'g'it ham tanqisroq. (O.)*

-roq ba'zan predmet belgisining nisbiy ortiqqligini ko'rsatadi. Bunda chog'ishtiriluvchi narsaning nomi chiqish yo jo'nalish kelishigida bo'lib, kura, qaraganda, nisbatan so'zlari bilan birga keladi: Po'lat temir- dan qattiqroq. Karim kursimizda hamma studentlarga qaraganda kattaroq kabi. Bunday konstrukciyalarda belgining ortiqqligi chog'ishtirilgan ikki predmetdagi belgining o'zaro

munosabati asosida ifodalanadi. Ammo **-roq** affiksi shunda ham belgining umuman oddiy darajaga etmaganligini, undan bir oz kamligini bildiradi: Kunlar o'tadi sekin, yigit ketadi uzoq, ...Lekin yorga tuyular avvalgidan yaqinroq. (H. O.)

Predmet belgisining ortiqligini ko'rsatish, kuchaytirish uchun ba'zan -roq affiksi bilan kelgan sifat oldidan yana, tag'in so'zlari keltiriladi: Dadamat uni pvshinda bedana paloviga taklif etdi va Far-g'ona yallasishi yana sho'xroq ohangda aytib, qushlarga berildi. (O.)

-roq, affiksi ba'zan sifat bo'lmagan so'zlarga (ravish, sifatdosha, ravishdoshlarga) qo'shib, ular anglatgan belgini qiyoslab ko'rsatishi ham mumkin. Bu vaqtda ham belgining kuchsizligi anglashiladi: ertaroq, kechroq, tezroq, ozroq, ko'proq, qariganroq, kulibroq, qizaribroq; Bir necha vaqtdan buyon menga boshqacharoq qaraydigan bo'lib qolding. (K. F.) Ular bu sovg'alarni har kungi konfetlardan ham sevibroq, shodlanibroq qarshi oldilar. (M. I sm.) U nimadandir cho'chigan, hovliqanroq ko'rinardi. (A. Mux.)

Qiyoslash ma'nosi ko'ra, nisbatan, qaraganda (ham) yordamchilari olgan otning oddiy darajadagi sifatga birikishi bilan ifodalanadi: Qo'llar temirga Karaganda mustahkam bo'liili kerak. (Sergey Borodin.) Bugun kechagiga nisbatan kup va yaxshi, ertaga bugungiga Karaganda yana ham ko'proq va yaxshiroq ishlash kerak. Paxtamiz oltindan ham qimmat. (O.)

Rangtus bildiruvchi sifatlarda predmetning belgisi kamligi, kuchsizligini ko'rsatuvchi forma ham ishlatiladi. Bunday shakllar quyidagicha yasaladi:

a) *oddiy darajadagi sifatgaysh affiksini qo'shish bilan*: oqish, kukish, qizg'ish, sarg'ish. Rais qornini silkib kuldi, oqish tishlari ko'rinib ketdi (O.);

b) *sifat asosiga (i) mtir affiksini qo'shish bilan*: qoramtir, ko'kimtir. Ko'kimtir qora osmondagi behisob yulduzlar chaqnab turadi (A. Q.) kabi.

132-§. Orttirma daraja. Bu daraja predmet belgisining oddiy daraja holatidan ortiq ekanligini, kuchliligini ko'rsatadi. Orttirma daraja quyidagicha ifodalanadi:

1. *Leksik yo'l bilan, ya'ni sifat oldidan* ene, juda, g'oyat, nihoyatda, behad kabi so'zlarni keltirish bilan hosil qilinadi: eng yaxshi, eng yirik kabi: U qorli kun Yo'lchi uchun umrining eng mazmunli, eng rangli, eng go'zal kuni edi. (O.) Amakim bilan juda qydrdon bo'lib qoldi. (O.)

Bir sifatning takroridan hosil bo'lgan analitik shakllarda ham belgining ortiqligi ifodalanadi. Bu xil analitik shakllarning birinchi komponenta chiqish kelishigi shaklida keladi: *ko'pdan-ko'p, uzundan-uzoq* kabi.

2. Fonetik yo'l bilan. Sifatning bosh qismini olib, shu sifatning oldidan qo'shib takrorlash yo'li bilan yasaladi. Bunda:

a) sifatning yopiq bo'g'inga teng bosh qismi olinib, shu sifat so'zning oldidan qo'shib takrorlanadi: *yum-yumaloq, pak-pakana, but-butun* kabi;

b) sifatning unli bilan tugagan bosh qismi olinadi, oxiriga *p, m*, tovushlaridan biri orttiriladi va hosil bo'lgan yopiq bo'g'in shu

sifatning oldidan qo'shib takrorlanadi: *qip-qizil, ko'm-ko'k, qop-qora, yam-yashil, yap-yangi* kabi.

v) sifatning ochiq, unli bilan tugagan bosh qismi olinib, unga *ppa* tovushlari qo'shiladi va hosil bo'lgan qism shu sifat oldidan qo'shib takrorlanadi: *sop- pa-sog', quppa-quruq, tippa-tik, to'ppa-to'g'ri* kabi.

Oq so'zi bir bo'g'inli va unli bilan boshlangani uchun *ppa* tovushlari emas, balki *pp* tovushlari orttiriladi va hosil qilingan qism shu sifat oldidan qo'shib yoziladi: *Oppoq qordir tog'larning toili. (H. O.)*

3. Ba'zan belgining ortiqlik darajasi sifat oldidan maxsus so'zlar keltirish bilan ham ifodalanadi: *tim qora, g'irt yolg'on, jiya ho'l, jiya moy* kabi.

4. Ikki predmet belgisi o'zaro chog'ishtirilganda ham belgining ortiqligi ma'nosi anglashiladi. Bu vaqtda, sifat oldidan *hamma, bari, barcha* kabi olmoshlar chiqish kelishigi shaklida keladi: *hammasidan yax-shi, barchasidan katta, baridan chiroyli* kabi.

ERKALASH SHAKLI

133- §. Erkalash shakli, asosan, sifat asosiga *-gi- na* (*kina, -qina*) affiksini qo'shish bilan yasaladi: *yaxshigina, shiringina, yumshoqina, nozikkina, kattagina, oddiygina, engilgina* kabi. Erkalash shaklida kelgan sifatlar so'zlovchining belgi orqali narsaga ijobiy munosabatda bo'lishini, erkalash, suyish ma'nolarini anglatadi: *Istarasi issiqqina bu odamning o'zbekchalab salomlashganini ko'rgach, Onaxon hayron*

qoldi. (A. Mux.). *Mirhaydar enkayib uʻzchasini koʻtardi, uning oppouʻina, yumshouʻina, loʻppigina yuzidan oʻpdi.* (O.)

SHaxe, predmetga ijobiy munosabat sifatlarga toy affiksini qoʻshish bilai ham ifodalanadi: yoqimtoy, erkatoy, shirintoy kabi. SHundan keyin Qalandarov... birinchi navbatda Qodirovning erkatoy arzan- dasi boʻlib qoldi. (A. Q.) Uktam xayrlashar ekan,... hovlidan bulbulnikiday yangroq, yoqimtoy, toza ovoz yuksaldi. (O.)

JUFT VA TAKRORIY SHAKL

134- §. Bu shakllar ikki sifatning juft holda yoki bir sifatning takroriy holda qoʻllanishidan hosil boʻlib, leksikgrammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiladi: *yaxshi-yomon, past-baland, oq-qora, oʻydim-chuqur, katta-katta, yaxili-yaxshi* kabi.

Sifatning juft shakli koʻplik, umumlashtirish, jamlash maʼnolarini bildiradi. Sifatlardagi juft shakl komponentlari maʼno jihatidan: a) antonimlik munosabatida boʻladi: *yosh-qari, issiq-sovuq, achchiq-chu- chuk, katta-kichik* kabi. *Gavokum koʻcha, katta-kichik har xil yoshdagi bolalar juda koʻp* (O.);

b) *bir-biriga yaqin, sinonimlik munosabatida boʻladi: yakka-yagona, och-yalangʻoch, qingʻir-qiyshiq, esli- hushli* kabi. Zumradxon sumkachasi bilan erining el- rasini asta turtib, «Eson-omon borib keling»,—dedi. (O.) Tuyalar koʻp, qingʻir-qiyshiq koʻchada tiqilyab qolishgan. (O.);

v) *birinchi komponentning fonetik oʻzgarishi asosida hosil boʻladi: egri-bugri, ola-bula, chala-chulpa, ola-kula* kabi: Ayvon ustuniga

suyanib turgan ola-bula yamoq choponli bir bola kvlib uning oldiga tushdi. (P. T.)

Sifatning takroriy shakli bir so'z(asos)ning takroridan hosil bo'ladi va ko'plik, umumlashtirish ma'nolarini ifodalaydi. Bu vaqtda sifatlanmish ko'plik affiksini oladi: *Kichik-kichik do'konchalar oldidan o'tib borayotib, ... bir tuda ustalarni ko'raman. (O.) YUksak-yuksaklarga tikka uchishni Har kun bolasiga o'rgatar burgut. (H. Rahmat.)*

SIFATNING OT GA QUCHISHI VA ALMASHUVI

135- §. Sifatning otga ko'chishi va otlashuvi boshqa-boshqa hodisalardir. Bir turkumdagi so'zning boshqa turkumga ko'chishi deganda til taraqqiyoti iatijasida bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tgan so'z nazarda tutiladi. Bunda mazkur so'zning grammatik mohiyati, qisman ma'nosi o'zgaradi. Sifatlarning otga ko'chishi ham shunday hodisadir. Masalan, *qiz, o'g'il, erkak, ayol, ka-sal, chol* kabi so'zlar asli sifat bo'lib, keyinchalik *otga* aylangan. Bunday so'zlarning otga ko'chganini yoki ko'chayotganini ko'rsatuvchi belgi ularning sifat bilan ifodalangan aniqlovchi olishida ko'rinadi: *YOsh yigit, qari chol, chiroyli ayol* kabi.

Sifatning (yoki boshqa biror tur kum so'zining) otlashuvi esa uning gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir. Sifatlanmish tushirib qoldirilsa, sifat o'sha otning shakliy belgilarini qabul qiladi hamda uning sintaktik vazifasini bajaradi. *YAxshi, qizil, yomon, issiq, eski, yangi* kabi sifatlardan belgi ma'nosi anglashiladi, *yaxshiga, kattada, yomon- dan, qizilini* deyilganda esa shu belgiga ega bo'lgan shaxe yoki narsa ma'nosi anglashiladi: *U go'yo mag'rur kelgindilarga*

ko'rik yasayotgandek edi (S. B.) Eskila- rini yamaguncha, yangilarini tezroq yasaymiz. (S. B.)

Sifatlar ba'zan qiyosiy daraja shaklida ham otla- shib keladi: Askarlar esa ularning orasidan chaqqonroqlarini ko'z ostiga olib qo'yganday bo'lar edi. (S. B.) Sendan ko'ra munosibroqni topaman desa, Komilaning aqliga men hayron qolmaganim bo'lsin. (O.)

Otlashgan sifatlar gapda ega va to'ldiruvchi, qaratuvchi vazifalarini bajaradi: Kattaga hurmatda bo'l, qichikka izzatda. (Maqol.) Kucha bo'm-bo'sh, bolalar tugul, kattalar ham yo'q edi. (M. I sm.) YOmonna tanqid qiladi, yaxshiga taqlid qiladi. Dili to'g'rining tili to'g'ri (Maqol.) G'oliblar majlis to'ridan joy olishdi. (A. Q.u

SON

SONNING MA'NOSI VA GRAMMATIK BELGILARI

¹³⁶⁻ §. Sonlar mustaqil ma'noli tobe so'zlardan iborat bo'lib, predmetning miqdorini va tartibini ko'rsatadi, q a n ch a?, n e ch a?, n e ch a n ch i? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Son otga bog'lanib, uning sanog'ini miqdorini *Sikki talaba, besh bola, unta daftar* kabi), miqdorga bog'liq tartibini, darajasini (*ikkinchi kurs, beshinchi uy* kabi) va otga bog'lanmagan holda mavhum miqdor tushunchasining nomini (*uch bilan to'rt etti bo'ladi, besh karra besh yigirma besh* kabi) bildiradi.

Sonlar harf bilan yoziladi (*besh, o'n, o'n to'uz, ikkinchi, ettinchi*) yoki arab raqami bilan (*5, 10, 14, 19, 2-, 7-*), rim raqami bilan (*V, X, XIV, XIX*) ko'rsatiladi.

137- §. Miqdor tushunchasi juda mavhum bo'lgani sababli, uni ifodalovchi so'z ham mavhum xususiyatga ega. Son shu xususiyati bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi. Masalan, *besh, o'n ikki, yigirma uch, bir yuz o'n to'uyiz* kabi sonlar alohida olinganda, faqat mavhum miqdor tushunchasinigina ifodalaydi. Sonning ma'nosi u biror narsa nomini bildirgan so'z bilan bog'langandagina aniqlanadi: *beshta daftar, o'n ikki kishi, yigirma uch o'quvchi* kabi.

Bir sonidan katta barcha sonlar otning ko'plik shakliga xos birdan ortiqlik, ko'plik tushunchasini aniqlab ifodalashga xizmat qiladi. Bunday sonlar bilan birikkan ot o'zbek tilida ko'plik yasovchilar affiksini olmaydi. CHog'ishtiring: *Talabalar keldi — to'rt talaba keldi, kitoblar oldim — o'n ikkita kitob oldim* kabi. Son har vaqt sanalishi mumkin bo'lgan predmetlarni anglatgan otlar bilan qo'llanadi, ularni miqdor jihatidan aniqlab keladi.

138- §. O'zbek tilida sonlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Son boshqa so'z turkumidan yasalmaydi, uning son yasovchi affikslari ham yo'q. Binobarin, son turkumi so'z yasalishi sistemasiga ega emas.

2. Sonning ma'no turlari va modad shakllari uning o'ziga maxsus affikslar qo'shish bilan yasaladi: *btta, o'ntacha, uchov, oltita, ikkitadan, ettinchi*.

3. Son o'zicha turlovchi affikslarni qabul qilmaydi, sifatlovchi olmaydi, aksincha, o'zi otning, sifatlovchisi bo'lib keladi: *Uchinchi talaba ikki yil burun SHahrisabzdan tahsil uchun kelgan o'n sakkiz yashar Sultonmurod edi. (O.)*

4. Son miqdor tushunchasining nomini anglatganda va otlashganda kelishik, egalik affikslerini qabul qiladi, ot bajargan vazifalarda kaladi: *Un besh uchga kasrsiz bo'linadi.*

5. *Son narsa miqdorini turli tomondan aniqlash uchun sanoq bildiruvchi so'zlar — numerativlar bilan ham qo'llanadi:* Polvon bitta tuxum, ikki dona xurmo, yarim misqol sedana, besh dona bo'tako'z, bir qoshuq asalni bir piyola suv bilan mis idishda qaynatishga bo'yurdi. (A. Q.)

Uzbek tilida sonlar *birlik, o'nlik, yuzlik, minglik* sistemasida qo'llanadi, ya'ni avval birdan o'ngacha sonlar (birliklar) ayrim so'zlar bilan ifoda qilinadi. Keyin har qaysi o'nlikning o'ziga xos nomi bor. YUz, ming shu so'zlar bilan ifodalanadi. Unliklar orasidagi miqdor o'nlik nomiga birlik sonni qo'shib tuziladi. Undan keyin mingtacha yuz ichidagi sonlar qaytariladi. Sonning shu tariqa ifodalanishi *birlik, o'nlik, yuzlik, minglik sistemasini* tashkil qiladi. Bu sistemaning qismlari qat'iy tartibga bo'ysunadi. Bu sistemada jami son bildiruvchi 20 ta so'z (*million, milliard* so'zlaridan tashkari) bo'lib, ular juda katta miqdorlarni ko'rsatishga xizmat qiladi.

139- §. Sonlar tuzilish jihatidan ikki xil bo'ladi: sodda son va qo'shma son.

1. *Sodda son bir o'zakdan iborat bo'ladi. Uzbek tilida sodda sonlar quyidagilar:* bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard. *Eski o'zbek tilida son, miqdor bildiruvchi tuman (o'n ming), lak (yuz ming) so'zlari ham ishlatilgan.*

2. Bulardan *sakson, to'qson, oltmish, etmish* sonlari tarixan yasama (*sakkiz+o'n, to'qiz + o'n, olti+mish, etti+mish*)¹ bo'lsa ham, hozir ular birikib, ajralmas sodda holga kelgan. Sodda sonlar boshqa xil sonlarni hosil qilish uchun asos bo'ladi. Qo'shma son bir miqdor tushunchasini anglatuvchi ikki va undan ortiq sonlardan iborat bo'ladi: *o'n ikki, o'n to'rt, o'ttiz olti, bir yuz yigirma beshinchi* kabi. Qo'shma sonlarda avval katta sonning miqdori va uning o'zi, undan so'ng kichikroq son o'z miqdori bilan, undan keyin yana kichikroq son o'z miqdori bilan keladi: uch ming ikki yuz to'qson besh (3295), bir ming to'qqiz yuz etmish besh (1975) *kabi*.

Sonlar juft holda ham keladi. Bu vaqda ikki son o'zaro tenglashish yo'li bilan bog'lanadi va taxminiy miqdor ma'nosini anglatadi: *to'rt-besh, besh-olti, o'n-o'n besh, qirq-ellik, ikki yuz-uch yuz* kabi.

Ikki sonning)'zaro teng bog'lanishida kichikdan kattaga tomon bittadan (bir-ikki, ikki-uch, etti-sakkiz kabi), beshtadan (besh-o'n, o'n-o'n besh, yigirma-yigirma besh kabi), o'ntadan (yigirma-o'ttiz, qirq-ellik, sakson- to'qson kabi), yuztadan (uch yuz-to'rt yuz, besh yuz-olti yuz kabi), mingtadan (ming-ikki ming, uch-to'rt ming, besh-olti ming kabi) oshirib boriladi: Suyunboy aka mehmonlar bilan ko'riishb chiqqach, xurjunidan to'rtta tandir non, besh-oltita somsa olib qo'ydi. (P. Qod.) O'n-o'n besh ming emas, yigirma-yigirma besh ming gektar ni cho'ldan uzib oladigan bo'ldik. (O.)

Son gapda asosan sifatlovchi vazifasida keladi: To'y ikki yoshning, ikki xonadonninggina emas, ikki mahalla, butun yor-do'stlarning to'yi

bo'ldi. (A. 'K.) Hulkar o'rog'lik dasturxonni bir qo'liga, kastrulkadagi qo'yning qatig'ini ikkinchi qo'liga oldi-yu, chodirdan chiqdi. (P. Krd).

Sonlar otlashganda va abstrakt son tushunchasini ifodalaganda, gapda ega, to'ldiruvchi, kesim va qaratuvchi vazifalarini bajaradi: Olimlarning ikkisi ham tuproqshunos edilar. (O.) CHo'lponoy o'n birinchini bitirgan, o'zi qobiliyatli, bilimi ham ancha yaxish. (P. Qod.) Birining qo'lida cho'llarga hayot, Birining qo'lida daryo tovlanar. (H. O.)

SONNING MA'NO JIHATIDAN TURLARI

¹⁴⁰⁻ §. Sonlar ma'no xususiyati va grammatik belgilari jihatidan dastlab ikkiga bo'linadi: 1. Miqdor son. 2. Tartib son. Miqdor son narsaning miqdorini, sanog'ini va umuman miqdor tushunchasini bildirsa, tartib son narsaning tartibini, darajasini anglatadi.

MIQDOR SONLAR

¹⁴¹⁻ §. Miqdor sonlar narsa miqdorini sanash yo'li bilan aniqlaydi. Miqdor sonlar sanalishi mumkin bo'lgan har qanday narsaning miqdorini ko'rsatadi: Biz kelgusi ellik, yuz yillarga mo'ljallab ishonch bilan olib borishimiz kerak. (A. Mux.) Siddiqjonning nomiga birdan unta tabrik telegrammasi keldi. Eilik oldida beshta ot qator turar edi (A. Q.)

Miqdor sonlar o'zi ko'plik ma'nosini anglatgani uchun ko'plik affiksini qabul qilmaydi. Bu vaqtda miqdori aniqlangan narsani bildiruvchi ot ham *-lar* affiksini olmaydi: *Devor soat jimlikni buzib erin- may o'n ikki marta jom urdi. (S. Ahm.) Besh yuz yil yashadi tog'day Vatanda Buyuk Alisherning asriy nidosi (G'. G'.)*

Miqdor sonlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi: 1) sanoq son; 2) jamlovchi son; 3) chama son.

SANOQ SON

¹⁴²⁻ §. *Sanoq sonlar narsaning miqdorini sanab, donalab yoki taqsimlab ko'rsatishga xizmat qiladi: Kolxoz ikki yilda oyoqqa bosdi, rayondagi ilg'or kol- xozlar qatoriga o'tdi. (A. Q.) ...beshta bola va mol- holning butun og'irligi Suyumning bo'yniga tushar edi. (P. Qod.) Surat tagiga «Avaz Qambarov har yuz sovliqdan bir yuz o'ttiztadan qo'zi olgan...» deb yozib qo'yilgan. (P. Qod.)*

J Sanoq sonlar predmetning miqdor belgisini bildirgani uchun otga sifatlovchi bo'ladi va shakliy jihatdan o'zgarmaydi (otga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi): Oftob G'arbga yonboshlaganda, ikki yo'lovchi pastdan chiqib, tepalikka yo'l oldi. (A. K-) Otaning beshta o'g'illari bor edi, shu teraklarni ularning xotiralariga ekan edilar. (U. U.)

¹⁴³⁻ §. *Bir sanoq soni ayrim xususiyatlari bilan boshqa sonlardan ajralib turadi. Ikki, besh, o'n, sakkiz kabi sonlar ot bilan bog'lanib, uning miqdorini aniqlaydi. Bir so'zida esa konkret miqdor bildirish xususiyati ancha kuchsizlashgan. Chunki predmetning birligi, tanholigi, yakka ekanligi otning birlik shakli orqali ham ifodalanadi: qassob dumbasi selkillagan qo'yni... tomorqaga etaklab o'tganidan so'ng Nasimjonning ko'ngli tinchidi. (O.) Bunda bir so'zi qo'llanmasa ham, qassob, dumba, qo'y, tomorqa kabilarning bitta ekanligi anglashilib turadi. Bir so'zida miqdor ma'nosining kuchsizlashganligi uning asosiy ma'nosidan tashqari, juda ko'p boshqa ma'nolarni ifodalashida ham ko'rinadi. Bu ma'nolar esa faqat kontekstda*

aniqlanadi: *Magazinning bir derazasi choyxona tomonga, bir derazasi maktab quriliish tomonga ochilardi.* (A. Mux.)

Bir so'zi quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

1. Predmetni aniqlab, uning sonini ko'rsatadi. Bu vaqtda u miqdor bildiruvchi hisob so'zlari (numerativlar) bilan ham ishlatiladi: *bir so'm, bir gektar, bir qadam, bir juft, bir tup (gul), bir dona (kitob), bir qop (un), bir kosa (ovqat)* kabi.

2. *Predmetni aniqlab, «noaniq»lik ma'nosini bildiradi:* Qiz Toshkentdan vakil bo'lib kelgan bir rus kishi bilan gaplashmoqda edi. (O). *Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda* (H. O.)

3. Har, vaqt, kun, fasl, qadar, yil, mahal *kabi so'zlar bilan birga kelib, ta'kidlash, ajratib ko'rsatish, gumon kabi ma'nolarni bildiradi:* U bir kupi tushki dam olish vaqtida... daryodan suv keltirgani bordi. (A. Q.)

4. *CHegaralov ma'nosini bildiradi:* Hammamiz imtihonlardan yaxshi o'tdik, bir Ahmadning mazasi bo'lmadi.

5. *Fe'lga bog'lanib, uning ma'nosini kuchaytiradi:* b iram sog'indim, bir tepdi. Omadimiz kelgan ekanmi yo qurt tutishni sog'inib qolgan ekanmizmi — bir bo'lib berdi, qani endi terib tamom qilolsak? (A. D.)

6. *Takroriy shaklda fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini, uning qay tarzda bajarilganligini bildiradi:* Uktam kabinetda utirganlarga bir-bir qarab chiqdi. (O.) Umid mamnun holda zinapoyalardan bitta-bitta bosib pastva tushdi. (Mirm.)

7. *Takrorlanib, ayiruv bog'lovchisi vazifasini bajaradi, harakat, voqea-hodisalarning galma-gal bo'lganligini bildiradi:* CHoy

mahalida bir kulib, bir yig'lamsirab, o'zi, bolalari, nevarasi Urmonjon to'g'risida gapirdi. (A. Q.)~ Voy tavba, bir undoq deysiz, bir mundoq deysiz! (O. yo.)

144-§. Sanoq sonlar narsaning miqdorshsh donalab sanash yo'li bilan ham ko'rsatadi. Bu vaqtda sanoq sonlarga **-ta** affiksi qo'shilib keladi: *uchta bola, oltita daftar, beshta uy* kabi. *Mirzaev shoshib qolib bir kunning o'zida Latofatxonga ikkita xat ezdi.* (A.K)

Egalik affiksini (ko'pincha uchinchi shaxe) olib kelgan sanoq sonlar otlashadi. Bu vaqtda ular kelishik affiksini ham qabul qilishi mumkin, lekin ko'plik affiksini olmaydi: Suruvdan etmish sakkiz qo'y oshiq chiqdi. Bulardan o'n sakkiztasi Ortiqniki, o'n uchasi Turdi bilan Eshmurod akaning o'ziniki, ikkitasi qaysi bir rayon xizmatchisiniki edi. (77. Qod.) Sanginov kechagina oblastda yana bittasidan igu gapni eshitdi. (A. Q.) «U kupi kelgan sintetik o'tovlardan bittasini Avazlarga bersangiz, alomat ish bo'lar edida»,— dedi Zamokali. (P. Qod.)

Narsaning miqdorini donalab sanashda sanoq son ma'no jihatdan bo'lak, dona, nafar, bosh, tup kabi predmetlarning miqdorini bildiruvchi hisob so'zlar — numerativlar bilan yonma-yon holda qo'llanishi mumkin: SHarofatbibi uzib keltirgan gullar ichidan bir parcha olovday yongan ikkita (ikki dona) ko'rkam ʻizil gulni tanlab, Komilaning chekkasiga ʻistirib qo'ydi. (O.) Ikkinchi sinfda o'ttiz beshta (o'ttiz besh nafar) o'quvchi ta'lim oladi.

Sanoq sonlarga -gina affiksi qo'shilsa, predmet miqdorini chegaralab, anirib ko'rsatish ma'nosi anglashiladi: ...doimiy tokni uzomq olib borshi arzon tushadi— unga ikkitagina sim, oddiy ustunlar

kerak. (A. Mux.) Sizning bolalaringizday ikkitagina qora ko'z o'g'lim bor (P. T.)

Sanoq sonlar narsalarning taqsimini, ularning miqdor jihatidan teng bo'lganligini ham bildiradi. Bu vaqtda sanoq sonlar -dan affiksini olib, chiqish kelishigi taqsim ma'nosini ifodalaydi: ikkitadan, sakiztadan, yigirma beshtadan kabi; ...yana har gekta- ridan sakkiztadan (sakkiz uentnerdan) paxta berishga so'z berdik. (O.) Zveno a'zolari uch kunda to'rttadan, beshtadan mehnat kuni ishladi. («S. Uzb.»)

Ba'zan chiqish kelishigi affiksi to'g'ridan-to'g'ri sanoq sonning o'ziga qo'shilib kelishi ham mumkin: Viz sidkidildan ishlab, har yuz sovliqning yuz yigirmadan qo'zisini shunchalik semirtirib berganimiz ham oson ish emas. (P. Kod.) Sanoq son numerativ bilan kelganda, chiqish kelishigi affiksi numerativga qo'shiladi: Paxta aqchasidan ham fondga ajratilgach, mehnat kuniga uch so'm yigirma tiyindan to'g'ri keladi. (A. Kod.) Brigada plandagi yigirma sakkiz uentner o'rniga har gektaridan o'ttiz olti uentnerdan paxta topshirdi. («S. Uz b.»)

Bundan tashqari, taqsim ma'nosi, narsalarning teng bo'lingan miqdori sonning boshqa turlarini takrorlash yo'li bilan ham ifodalanadi. Jumladan, jamlovchi, dona sonlar takrorlanganda, taqsim ma'nosi anglashiladi: *Hammalari ikkov-ikkov zambil ko'tarib, risht tashishga kirishdilar. (A. Q.) YA sangan-tusangan to'da-to'da qizlar, yigitlar ikkita-ikkita, uchta-uchta bo'lib, parkning yashil quchog'iga yoyilmoqda. (O. YO.)*

145- §. Narsalarning sonini ko'rsatish, **ulartshg** miqdor belgisini aniqlashda sanoq" sonlar bilan birga hisob so'zlari (numerativlar) ham ishlatiladi. Predmetlarning sonini, hajmini, o'lchovini bildiruvchi **dona, nafar, bosh, gektar, tonna** kabi so'zlar *hisob so'zlari* deb ataladi. Hisob so'zlari bilan sanoq sonlar birgalikda boshqa otga bog'lanib, har ikkala so'z bir ran bo'lagi vazifasini bajaradi: *Utgan yili sakkiz tonnadan ortiqroq paxta terdim. (A. Q.) Bir tup gul yuz g'uncha ochadi. (O.) Olamda inson uchun o'z ustozidan bir og'iz maktov, svvganidan esa bir og'iz shirin kalom eshitishdan ham kattaroq baxt bormikan?! (M. Qoriev.)*

146- §. Narsaning miqdorini aniqlash jihatidan numerativlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Narsaning miqdorini donalab hisoblash o'lchovini bildiruvchi hisob so'zlar: bo'lak, parcha, dona, tup, nafar, nusxa, burda, bosh, bog', tuda, dasta;* Qog'ozga Samarkand koshinlaridan ikki donasi o'ralgan edi. (P. **Qod.**) Derazamning oldida bir **tup** o'rik **oppoq** bo'lib gulladi. (H. O.)

2. *Narsaning uzunligini, masofani bildiruvchi hisob so'zlar: metr, kilometr, santimetr, millimetr, tosh, chaqirim, gaz, qadam, qarich;* Soatiga sakson kilometr tezlikda kelayotgan Qalandarovning mashshasi o'tib ketdi. (A. Q.) Boshqarma bu erga oltmish chaqirim keladi. (77. Qod.) Qurilayotgan shifoxona guzardan atigi yuz ellik mdam narida edi. (O. YO.)

3. *Narsaning og'irligini bildiruvchi hisob so'zlar: qadoq, pud; botmon, kilogramm, uentner, tonna:* Oynisa jon-jahdi bilan urinib, chorak coajda sal kam o'n olti kilogramm paxta teribdi (A. Q.)

Sultonov «Maksim Gorkiy»chilar majburiyatidagidan tashqari yana ming tonna paxta berishga ahd qilishganini aytdi. (U. U.)

4. **Narsaning sathini bildiruvchi hisob so'zlari:** tanob, gektar, kvadrat metr, kvadrat kilometr, sotix; **Ilg'im-terimdan keyich bahorgacha ikki yuz yigirma gektar yangi er ochshiimiz kerak. (A. Q.) Bog' hali yosh, sahni o'ttiz besh gektar, unda-mundagina nishona mevalar ko'zga chalinadi. (O.)**

5. *Suyuqlik o'lchovini bildiruvchi hisob so'zlar:* **litr, hovuch, chelak, stakan, qoshiq, piyola, kosa;** Ovqatdan keyin Urmonjon ustma-ust ikki piyola choy ichdiyu, tushib ketdi. (A. Q.) Oshxonadan ikki kosa ovqat ko'tarib chiqqan Guljahon sevinganidan ovqatni qayoqqa qo'yishini bilmay qoldi. (O. YO.)

6. *Qattiq jism hajm o'lchovini bildiruvchi hisob so'zlar:* **kub metr, kub santimetr, lagan, qop, siqim, turva, arava, mashina, zambil;** Uktam ishonch bilan boshini qimirlatib qo'ydi. SHu vaqtda Dadamat bir lagan palov keltirdi. (O.) Mirahmad uydan bir qop olmani olib chiqdi. (O.)

7. *Qiymatni bildiruvchi hisob so'zlar:* **so'm, tiyin, tanga, chervon;** Siz m.enga ellik ming so'm pul ajratib, ikki-uch yil vaqt bering, mana shu bog'larni o'n marta yaxshi qilib beraman. (P. Qod.)

8. *Vaktni bildiruvchi hisob so'zlar:* **minut, soat, kun, oy, yil, asr, daqiqa;** Bu o'n kun muhlat Saidanint o'ziga kerak, bu o'n kunda kolxozchilarning umumiy majlisini juda yaxshi tayyorlashni ko'zlamogda edi (A. Q.) Ertagi ming yilning odamlari ham Tabarruk umrimni qilurlar havas. (G'. G'.)

Sanoq sonlar ganda asosan aniqlovchi, otlashganda va abstrakt miqdor tushunchasini bildirganda esa to'ldiruvchi, qaratuvchi va kesim vazifalarida keladi: Sobirjonning devordagi sakkiz yil burun oldirgan suratiga ertalabki quyosh nuri tushgan edi (A. Mux.) «Endi mening ham «besh» olishimni tilab turing»,— dedi u hayajonli ovoz bilan. (O. YO). Tantanali majlis soat ettida ochiladi. (A. Q.)

Jamlovchi son

147- §. Jamlovchi son miqdorni jamlab, to'dalab ko'rsatadi, ko'iincha egalik affiksi bilan keladi. Jamlovchi sonlarda miqdor orqali shaxe va narsalarni umumlashtirib ko'rsatish xususiyati kuchli. Bu hodisa jamlovchi sonlarning shaxe bildiruvchi otlardan keyin kelib, ularni jamlab ko'rsatishida ham, shuningdek, ko'plik, egalik va kelishik affikslarini olib kelishida ham ochiq ko'rinadi: *Anorxon, choyni do'ndirma qilib damlaysiz, ikozimiz shu erda ichamiz, durustmi? (O.) Men yana bir narsani o'ylab qoldim: besh kishi ekanmiz, beshovimiz bir quti urug' olsak, nainki eplab boqolmasak. (A. Q.)*

Jamlovchi sonlar quyidagi affikslar orqali sanoq sonlardan yasaladi:

1. *Sanoq songa -ov affiksini qo'shish bilan yasaladi: ikkov, uchov, to'rtov, beshov, oltov, ettov kabi. Bu xil jamlovchi sonlar ikkidan ettigacha sanoq sonlardan (ba'zan o'n sonidan ham) yasaladi: Dehqonboy akam bilan Hafiza opam ikkovlari ketadigan bo'lishidi. (A. Q.) Dilafr'o'z bilan Dilso'z ikkov oldin, Rashid keyin mashinadan tushdi. (M. Krriev.)*

2. *Sanoq songa -ala affiksini qo'shish bilan yasaladi: shkala, u chala, to'rtala, beshala kabi. Jamlovchi sonlarning bu turi ikkidan beshgacha sanoq sonlardan yasaladi. Bu forma ko'iincha egalik affiksi bilan*

qo'llanadi: Ikkalang ham qoyil qilding. Ikkalang ham qahramon. Kolxoz bo'ylab ikkingizning zvenongiz eng ilg'or. (U.) U yuzini o'girib qaradi, keyin ikkalasi beixtiyor xandon tashlab kulib yuborishdi. (M, Qoriev.)

Sifatlovchi vazifasida kelgan jamlovchi son egalik affiksi olmaydn: Sayda ikkala qo'li bilan boshini ushlab o'tirgan edi. (A. Q.) Ikkala professor idoradan olib chiqilgan stullarga o'tirishdi. (O.)

Jamlovchi son gapda ega, to'ldiruvchi vazifalarida ham keladi: Ikkovimiz do'stlashib qoldik. (S. A.) Paketlarning ikkalasini ham trestdan yuborgan edi lar. (A. Mux.) ','

CHama son

148- §, CHama son narsaning miqdorini aniq taxminlab, chamalab ko'rsatadi.

CHama son sanoq sonlardan quyidagi yo'llar Snimi yasaladi:

1. **-ta** affiksi bilan yasalgan sanoq songa **-cha** affiksini qo'shish bilan yasaladi. Bu affiks «bitta»dan boshqa barcha sanoq sonlarga qo'shiladi: beshtacha, o'ntacha, o'n ikkitacha, yigirma oltitacha kabi: Bu — paxsa devorlik qo'rg'onchalar bilan soy bo'ylab tizilishgan o'ttiztacha qing'ir-qiyshiq uyli bir qishloq. edi. (77. T.) Firkalilar bilan qishloq kambag'allarining birlashgan majlisiga beshtacha kishi ishtirok qiladi. (A. Qod.)

-cha affiksi sanoq son bilan qo'llangan hisob so'zlarga ham qo'shib keladi. Bu vaqtda xam o'lchov, og'irlik, uzunlik, payt, masofa kabilar jihatidan taxminiy miqdor ma'nosi anglashiladi: Bu stanqiyani solganimizga o'n bir yilcha bo'ldi. (A. Q.) Rahbarxon bu

xonadondan o'z baxtini topganiga endi uch oycha bo'ldi. N.) Ular ikki kilometrcha yurib, kanal bo'yi- ga chikishdi. (U. U.)

2. *Sanoq songalad affiksini qo'shish bilan yasaladi: o'nlab, o'ttizlab, yuzlab, minglab kabi.* Azamatlar o'nlab aravalarga va ikki mashinaga... har pae yuklarni ildamlilik bilan ortmoqda edi. (O.) «Sirdoshim qayda?»— deb dare so'rabdi minglab nasllardan, ko'p asrlardan. (U.)

CHama son yasovchi -lab affiksi ham ba'zan sanoq son bilan kelgan numerativlarga qo'shilishi mumkin: Un besh yillab erkalagan tilagim... Bilan kelib tushdim : sizning qishloma. (3.) Hozir bu erda ba'zi kunlar yuz —%ming so'mlab mablag' o'zlashtirilayotganini gapirib, m butun ulug'vor manzarani hammaning ko'z oldida namo-ryon qildi-qo'ydi. (A. Mux.) V 3. *Sanoq sonlar ko'plik affiksi -lar bilan kelganda, chama ma'nosi ifodalaiadi:* Majlis kech soat oltalarda kanal bo'yiga solingan kizil choyxonaning V qishlik binosida ochildi. (A. Q.)

Ko'plik affiksi ba'zan hisob so'zlarga qo'shilib :kelishi ham mumkin: Salimxon oyoq uchida yurib deraza ^Lyoniga bordida, undan o'n qadamlar naridagi yozgi supachaga chqdi. (A. Q.) U qirq besh yoshlarga borgan, urushga soldat bo'lib borib, kapitan bo'lib qaytgan... barvasta Utkiish edi. (77. Qod.) V 4. *Ko'plik affiksi bilan kelgan sanoq sonlarga formada (-larcha) narsa- —lapning taxminiy mnqdori to'dalab ko'rsatiladi:* Minut sayin yuzlarcha kabutarlar havoda engil ucha boshladi. Raqsdan so'ng yuzlarcha kolxozchi ayollar yor-yor aytishdi. (O.)

5. *Ikki sanoq sonni juftlab keltirish orqali ham chama son ma'nosi ifodalanadi*: Igit dala tomondan yolg'izoyoq yo'l bilan eshak minib kelayotgan o'n uch-o'n gurt yoshli bolani ko'rib to'xtadi. (O.) Etib kelib bulut cholning tepasiga, Uch-to'rt sovuq tomchi tashladi. (U.)

149- §. Bulardan tashqari, narsaning taxminiy miqdorini ifodalashda taxmin bildiruvchi so'zlar ham ishlatiladi.

YAqin. *Bu so'z jo'nalish kelishigidagi sanoq bilan bog'lanib keladi*: Yigirmaga yaqin yigitlar va qizlar g'ayrat bilan ishlab, to'qayni tozalamoqda edi. (O.) CHog'li. *Sanoq sonlar bilan birikib keladi*: Avaz ser- kani shamolga qarab solganda, Hulkar uning ketidan o'n chog'li qo'y-qo'zini «chu-chu»lab haydab chiqdi. (P. Qod.) Qariyb. *Sanoq sonlar oldidan birikib keladi*: Turdi bilan Eshmurod aka qariyb oltmishta qo'yni yashirib olguncha rosa qiynalimdi. (77. Qod.) CHamasi. *Sanoq sonlar yoki u bilan qo'llangan numerativlar bilan birikib keladi*: CHamasi ikki soat yurib, taqir qirga ko'tarilgach, olisdan ko'zlariga yalpi ko'm-ko'k dala ochildi. (O.)

Tartib son

150- §. Tartib son bir turdagi narsalarning darajamiqdor jihatidan tartibini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Tartib son narsaning ketma-ketlik jihatidan tartibini anglatadi. Jumladan, *beshinch*i uy deganda, «to'rt uyd

Tartib son sanoq sonlarga **-nchi (-inchi)** affiksini qo'shish bilan yasaladi. Sonlar harf bilan yozilgandagina bu affiks qo'shib yoziladi:

ikkinchi, to'rt inchi, o'n beshinchi, yigirma uchinchi kabi. Boshqa holatlarda esa bu affiks tartib sonlar bilan qo'llanmaydi.

Tartib son bir nechta sondan tuzilganda, affiks eng keyingi so'zga qo'shiladi, lekin qo'shma songa yaxlitligicha taalluqli bo'ladi: *ikki yuz sakson beshinchi o'qchi diviziya, «Bir ming to'qqiz yuz qirqinchi yil olmalari»* kabi.

Tartib son arab raqamlari bilan yozilganda, **-(i)n- ichi** affiksi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi (yil, oy, sanalar bundan mustasno): *25-maktab[^] 7-sinf, 14- uy, 252- sahifa* kabi; rim raqamlaridan, shuningdek yil, oy, kunlarni ifodalovchi arab raqamlaridan keyin defis qo'yilmaydi: *VII sinf, XX asr, III bob, 8 Mart, 1 May, 1941 yil* kabi.

151-§. Tartib sonlar o'zlari bog'langan so'zning xususiyatiga qarab ikki xil ma'no anglatadi:

a) asosan narsalarning miqdoriy tartibini bildiradi: Umida prezidiumning ikkinchi qatoriga, har kungi joyiga borib o'tirdi. (A. Mux.) To'rtinchi kursga o'tganda, unga beshinchi qavatdan alohida xona ajratib berildi (U. U.);

b) ba'zan mazmunan sifatga yaqin turgan belgi ma'nosini bildiradi. Bunda narsaning tartibi emas, aksincha, uning xususiyati, belgisi e'tiborga olinadi: *birinchi nav paxta, ikkinchi naz choy. Bu yil Sirdaryo oblasti topshirgan paxtaning hammasi birinchi navga qabul qilindi. («S. Uzb.»)*

Tartib son gapda asosan sifatlovchi vazifasida . keladi: Turg'unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi

tovushlar esa uni vahimaga soldi. (A. Q.) Katta akam institutga kirganda beshinchimi, oltinchimi sinfda o'qir edim. (U. H.)

Tartib son ba'zan otlashganda, ot shakllarini qabul qilib, gapda ega, to'ldiruvchi, kesim va qaratuvchi vazifasida keladi: Unsin bir do'ppini akasining boshiga kiygizib, ikkinchisini U rozga tutdi. (O.) SHu pallada kecha-kunduz tinmasdan g'allani tashiig kerak, I axir biz rayonda g'alla planini bajariilda birinchi I miza! (O.)

? CHiqish kelishigidagi tartib sonlar esa gapda kirish so'z vazifasida keladi: Bunda, birinchidan, hosil yaxshi, ikkinchidan, qimmatli suv jarga oshb ketmaydi, t uchinchidan, kishi kuchi ham ortiqcha sarf bo'lmaydi. \ (A. Kod.)

J- 152- §. Sonlar, odatda, otga bog'lanib, sifatlovchi vazifasida keladi. Sonlar bog'lanib kelgan ot tushib qolganda, otlashadi (substantivlashadi). Bundan tash-) qari, son mavhum miqdor tushunchasining nomini ham ' anglatadi. Sonning otlashishi bilan miqdor tushunchasini ifodalashi bir-biridan farq qiladi. Son otlashganda, miqdor orqali gapda tushib qolgan ot anglatgan

shaxe va predmetni ko'rsatadi, shu otning grammatik shakllarida — ko'plik, egalik va kelishik formalari- da keladi, gapda ular bajargan sintaktik vazifalarni bajaradi: *Un to'uzizdan oshmay tur, go'zal, Yigit sendan shuni so'raydi. (H. O.) Birining tilida elning kalomi, Birining og'zida yurtning salomi. (U.)*

Son mavhum miqdor tushunchasining nomi bo'lib kelsa, ot kabi egalik, kelishik affikslarini oladi, ot bajaradigan vazifalarda keladi:

Beshni beshga ko'paytirsak, yigirma besh bo'ladi. Igirma beshga koldiqsiz bo'linadi. Sakkizga oltini ko'shea, o'n to'rt bo'ladi kabi.

Sonning miqdor tushunchasini anglatib kelishi ayniqsa qo'shish, ayirish, ko'paytirish singari matematik tushunchalarni ifodalashda ko'p uchraydi: *Nol butun yuzdan beshning o'nga ko'paytmasi nol butun o'ndan beshga teng bo'ladi* ($0,05 \cdot 10 = 0,5$) kabi.

Butun son va kasr son

153- §. Butunni yoki uning qismini ifodalashi jihatidan sonlar ikkiga ajratiladi: a) butun son, b) kasr son.

Miqdorni butunligicha ifodalovchi sonlar *butun son* deyiladi: *bir, ikki, besh, etti* kabi.

Miqdorni butunning qismiga ko'ra ifodalovchi sonlar *kasr son* deyiladi. Kasr sonlar bir butunga etmagan miqdorni bildiradi: *uchdan ikki, to'rtidan bir, yuzdan sakkiz* kabi. Kasr sonlar tuzilish jihatidan quyidagicha: butunning bo'linishini bildiruvchi son chiqish kelishigida, bo'lak, ulushni ifodalovchi son esa shaklan bosh kelishik formasida bo'ladi, sintaktik va zifasiga qarab bunday songa egalik va kelishik affiksi qo'shiladi. Bu vaqtda miqdoriy belgisi aniqlangan ot ham, asosan, qaratqich kelishigi shaklida keladi: *Mehri o'ish ilu brigadirning ko'zini shamg'alat qilib, ...o'zi tergan paxtaning qariyb o'chdan bir uni Zulqorov zvenosi hisobiga o'tkazdi.* (A Q.)

Bulardan tashqari, kasr sonlar *yarim, chorak, nim chorak* kabi so'zlar bilan ham ifodalanadi. Bu so'zlar ning o'zi butunning bir

qismini— yarmini, to'rtidan bir qismini va sakkizdan bir qismini bildiradi *Oradan yarim soat o'tgandan keyin SHafrin oyog'inip.* uchida yurib chiqib ketdi. (A. Q.) Loyihy mendan, ulushimni qo'shaman, suvim ham muddatidan avval yo'lning choragiga. keladi. (A. Muk.)

Butun son bilan kasr son aralash holda ham ishlatiladi. Bu vaqtda kasr sondan oldin butun so'zi keltiriladi: to'rt butun o'ndan besh, etti butun o'ndan bir kabi. Bular kasrli son deyiladi: Uylash hozir qimmatga tushadi, Mardomul aka, o'ylashingizning har bir kuni nol butun yuzdan olti tonnaga tushadi».— «Nimaning yuzdan olti tonnasiga?»— «Oltinning». (A. Mux.) *Kasrli son butun sondan keyin yarim so'zini keltirish "bilan ham tuziladi: Bu odam ustidan tushgan arizani Qalandarov bir yarim yildan beri muho- kama qilgani qo'ymas ekan.* (A. Q.)

olmosh

OLMOSHNING MA'NOSI VA GRAMMATIK BELGILARI

154-§, Ot, sifat, son, ravish kabi so'z turkumlari o'rnida qo'llanib, ularni ko'rsatishga xizmat qiluvchi va ularning vazifasshsh bajaruvchi so'z turkumi *olmosh* _ deyiladi. Olmoshlar narsani, uning belgisi va miqdorini anglatmaydi, balki faqat ularni ko'rsatishi ularga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Olmoshning I ma'nosi, uning qaysi so'z turkumi o'rnida kelganligi kontekstda yoki nutq vaziyati orhali aniqlanadi. Chunki olmoshlarning ko'pchiligi alohida olinganda juda umumiy, mavhum ma'noga ega bo'ladn. Masalan, *Mehru xmuhabbatingni go'daklarga bag'ishla! Ular dunyoga endi ulyapti.*

(Mirm.) Majlisda Zokir ota doklad qildi. uning dokladidan toshqin manzarasi ...hammaning ko'z 'yuldiga gavgalandi-u'oldi (A. Q.) gaplarida ular, u olmoshlari shaxsni ko'rsatadi. SHu olmoshning qaysi so'z o'rnida kelganligi oldingi gapdagi go'daklar, Zokir ota so'zlari asosida aniqlanadi. Eki: ... Ko'ngli torgib gapirshiadigan bitta odam Ehsonov bo'lsa, u ham bu odamlar ichida shularning biriga aylanadi. (A. K.) Men Obidov bilan Baratovning o'z vazifasidan chetlashtirilishini ... so'rayman. Bunday o'qituvchilar bolalarimizni partiyamiz... talab qilganicha tarbiya qilolmaydilar. (S. 3.) Bu misollardagi u, shu, bunday olmoshlarshshpg Ehsonov odam, Obidov, Baratov so'zla'ri o'rnida kelganligi matndan bilinadi.